



**TOLDOSHLAR OILASINING TAVSIFI, MAMLAKATIMIZDA
KENG TARQALGAN TURLARIGA TA'RIF, ULARNING AHAMIYATI.**

**ОПИСАНИЕ СЕМЕЙСТВА ТОЛОКНЯНКОВЫЕ, ОПРЕДЕЛЕНИЕ
РАСПРОСТРАНЕННЫХ В НАШЕЙ СТРАНЕ ВИДОВ, ИХ ЗНАЧЕНИЕ.**

**DESCRIPTION OF THE TOLDASH FAMILY, DESCRIPTION OF
THE TYPES COMMON IN OUR COUNTRY, THEIR SIGNIFICANCE.**

Imomxonova Mavludaxon Rashidxon qizi

ADPI tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi talabasi.

Ilmiy rahbar: **Tojiboyev Murodali Umaraliyevich**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toldoshlar oilasi ularning yer yuzi bo'ylab keng tarqalgan turlari bilan tanishilib chiqiladi. Bu oilaning mamlakatimizning qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa sohalardagi ahamiyati haqida ma'lum ko'nikma va bilimlarga ega bo'lamiz.

Аннотация: В этой статье будет представлено семейство ивовых с их широко распространенными на земле видами. Мы приобретаем определенные навыки и знания о важности этой семьи в сельском хозяйстве, промышленности и других областях нашей страны.

Annotation: in this article, The Toldosh family will be introduced to their common species throughout the Earth. We will have certain skills and knowledge about the importance of this family in the agricultural, industrial and other sectors of our country.

Kalit so'zlar: toldoshlar, melioratsiya, vegetativ ko'payish, asalarichilik, glikozid salitsin, flavonoidlar

Ключевые слова: ивы, мелиорация земель, вегетативное размножение, пчеловодство, гликозид салицин, флавоноиды.

Keywords: toldashlar, melioration, vegetative reproduction, beekeeping, glycoside salicin, flavonoids.

Toldoshlar oilasi lotincha nomi(*Salicaceae*) — ikki uyli o‘simliklar oilasi hisoblanadi. Hayotiy shakllariga ko‘ra daraxt, buta va ba‘zan yarimbuta ko‘rinishida bo‘ladi. Bargi oddiy, spiralsimon joylashgan; gullari bir jinsli, to‘pguli kuchala. Barg yozilguncha yoki yozilgandan keyin kuchala hosil qiladi. Gullari yon bargchalar qo‘ltig‘ida joylashgan. Changchisi 8 tagacha bo‘ladi. Shamol va hasharotlar yordamida changlanadi. Mevasi bir uyali, ko‘p urug‘li ko‘sakcha, ikki va uch pallaga bo‘linadi, urug‘ining tubida kumush rang tuklari bor. Urug‘lari shu tuklar yordamida, suv va havo orqali tarqaladi. Urug‘idan va qalamchasidan ko‘payadi. Shimoliy yarim sharning mo‘tadil zonasidagi ko‘l va daryo bo‘ylarida nam yerlarda o‘sadi. Toldoshlarning hozirgi kunda 3 turkumi, 400 dan ortiq turi malum bo‘lib, O‘rta Osiyoda 70 turi bor. Ulardan 40 tasi mahalliy, 30 tasi introduksiya qilingan. Ushbu oila hayotiy shakllariga ko‘ra yirik daraxt va butalar bo‘lib, balandligi 20-35 m poyasining eni 1 m gacha boradi, ba‘zi turlari butalar hisoblanadi. Shoxlanishi simpodial tipda bo‘lib, yirik shox-shabballarni hosil qiladi. Po‘stlog‘i kulrang, yo‘l-yo‘l yorilgan. Qari novdalari silliq, yosh novdalari esa tuklar bilan qoplangan. Barglari oddiy, ketma- ket joylashgan, yon bargchali, bandli bo‘ladi. Bargi butun, lansetsimon, ustki qismi yashil tovlanadi, bargning ostki qismi esa kumushsimon oqish tovlanadi. Gullari kichik, gulqurg‘onsiz, ayrim jinsli isirg‘alar to‘pgulda to‘planadi.

Tol-*Salix L.* hayotiy shakllariga ko‘ra yirik daraxt va butalar bo‘lib, balandligi 20-35 m poyasining eni 1 m gacha, ba‘zi turlari butalar hisoblanadi. Shoxlanishi simpodial tipda bo‘lib, yirik shox-shabballarni hosil qiladi. Ikki uyli. Po‘stlog‘i kulrang, yo‘l-yo‘l yorilgan. Qari novdalari silliq, yosh novdalari esa tuklar bilan qoplangan. Barglari oddiy, ketma- ket joylashgan, yon bargchali, bandli. Bargi butun, lansetsimon, ustki qismi yashil tovlanadi, bargning ostki qismi esa kumushsimon oqish tovlanadi. Gullari kichik, gulqurg‘onsiz, ayrim jinsli isirg‘alar to‘pgulda to‘planadi.

Salix Lutea turlari erta bahorda asalarilar uchun gulshira va gulchangi beradi. Bunda bir o‘simlikda 23,4-31 g. shakar yig‘ilishi aniqlangan. L.Bulgakova o‘z kuzatishlarida *Salix L.* turlari gulshira va gulchangi berishi haqida qisqacha ma‘lumot berib o‘tgan. Shu sababdan uning tabiatda va manzarali o‘simlik sifatida tarqalishi, asalarichilikda o‘z ahamiyatiga ega. Bundan tashqari tol turlarining gullash davri asalarida ozuqa tanqisligi bo‘lgan erta bahor davriga to‘g‘ri keladi.



Salix turlari bahorning erta yoki kech kelishiga qarab turli vaqtlarda gullaydi. Bu esa asalarilar oilasining rivojlanishi davrida ma'lum darajada ozuqa bilan ta'minlaydi. Bu o'simlik tuproq-iqlim muhitiga talabchan emas va ko'paytirish oson. Shuningdek, manzarali o'simlik sifatida, xo'jalik maqsadida ekiladi. *Salix carpea* L. turi keng maydonlarda ekilganda uning asal mahsuldorligi 150 kg ga yetib borgan. Uzoq Sharqda mamlakatlarida 70 dan ortiq *Salix* turlari yovvoyi holda keng tarqalgan bo'lib, noqulay sharoitda ham gulshira ajrata olishi, bularning turlarining birin-ketin gullashi natijasida gullash davri 30-35 kun davom etishi, yalpi maydonlardan 100-120 kg ga asal olinishi qayd etilgan. Qulay ob-havo sharoitida kontrol uyalari 2 kg.gacha asal to'plashi mumkin. Tol turlarining keng tarqalgani bois birinchi darajali gulchangi va gulshira beruvchi o'simlik hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida tuqayzor, tog' daryo o'zanlarida tarqalgan turlarning vaqti biroz cho'zilib 25-30 kun davom etadi. Bu esa erta bahorda arilar uchun ozuqa tanqis bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Changchilari, urug'chilari ham ikki mevachi barglardan hosil bo'lgan. Gulchangi yopishqoq va hasharotlar yig'ib olish uchun qulay bo'lgan gulchangi beradigan o'simlik hisoblanadi. Gullab bo'lgandan so'ng changchi va urug'chi shingillari to'kilib ketadi.

Salix L. po'stlog'i glikozid salitsin (salitsil kislota), uglevodlar, sellyuloza, lignin, oshlovchi moddalar, antotsian, flavonoidlar, C vitamini saqlaydi. Undan tayyorlangan preparatlar qon oqishini to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi, tinchlantiruvchi, antiseptik, isitma tushiruvchi, diuretik, shamollashga qarshi kasalliklarda qo'llanadi. Uning qonning quyuqlashuviga qarshi ta'siri yurak-qon tomirlari sistemasida tromb hosil bo'lishining oldini olish bilan muhimdir. Tibbiyotda va xalq tabobatida undan damlama va nastoykalar tayyorlab o'pka shamollashlarida, bosh og'rig'ida, tomoq og'riqlarida, varikozda, terlash hidini yo'qotishda, samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Toldoshlar oilasining yana bir vakili haqida tanishib chiqsak. Terak (*Populus* L.) — toldoshlar oilasiga kiruvchi daraxtlar turkumi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 100dan ortiq turi mavjud deb qayd etilgan. 30ga yaqin turi Yevrosiyo, Shimoliy Amerika va Shimoliy Afrikada mintaqalarida tarqalgan. O'zbekistonda terakning ko'kyaproqli yoki zangori bargli (*P. pruinosa* Schrenk), furot teragi (*P. euphratica* Oid.), mirzaterak (*P. nigra* L.), afg'on teragi (*R. afghanica*), oq terak (*P. alba*), Baxofen teragi yoki ko'kterak (*P. bachofenu* Wierzb.) turlari o'sadi. Mirzaterak, ko'kterak, oqterak turlari ko'p ekilib o'stiriladi. Teraklarning ba'zi turlarining



uzunligi 30— 45 (ba'zan 60) m gacha, diametri esa 1,5 (ayrim daraxtlariniki 3 m) gacha yetadi. Teraklar tanasi tik, shox-shabbasi tuxumsimon, piramidasimon, keng ovalsimon ko'rinishda bo'ladi. Barglari bandli, ketma-ket, barg plastinkasi yaxlit yoki kertikli, nashtarsimon. Kuchalasi silindrsimon, boshhoqsimon to'pgul, gullagandan keyin to'kiladi. Guli bir jinsli, ikki uyli. Aksariyati barg yozishdan oldin, ba'zilar barg yozgandan keyin gullaydi. Urug'i ko'sakcha, shamol va suv yordamida tarqaladi. Nam tuproqda tez unib chiqadi. Terak issiqsevar, yorug'sevar, sovuqqa bardoshli (masalan, mirzaterak) o'simlik. Sernam va unumdor tuproqlarda tez yetilib voyaga yetadi, lekin ba'zilar sho'rxok tuproqni xush ko'rishmaydi. Terak qisqa umrli (25—30 yoshgacha yaxshi rivojlanadi) daraxt bo'lsa ham 150—200 yil umr ko'radiganlari ham (mirzaterak va oqterakning ayrim daraxtlari) bor.

Tollar xar hil ekologik sharoitlarda ko'proq daryo, kanal, xovuz va ariqlar bo'yida o'suvchi yorug'sevar o'simliklar xisoblanadi. Vegetativ yo'l bilan nisbatan yaxshi ko'payadi. Urug'ining unib chiqish muddati anchagina qisqa bo'lib, ikki haftadan so'ng unib chiqish qobiliyatini yo'qotib qo'yadi. O'zbekistonda yovvoyi xolda o'sadigan bu sinf vakillariga: echkitol (salix sangarica), Olga toli (salix Olga Regel) suv tol (salix nilhelmsiana), Velgelms toli (S. Welhelmsiana Bieb) sariq tol (S. euapiculata), nedzveski toli (salix wedz weckii), sambittol (salix tenuijulis) ko'k tol (salix coerullea), qirchin tol (salix tenuijulis), lar daryo qirgoqlarida o'sib to'qaylar xosil qiladi. Shaxarlarda xovuz va anhorlar bo'yida, bog' va parklarda amudaryo toli (salix oxika), oq tol (salix mikans) qora tol (salix avstralior), yaltiroq tol (salix mikans), majnuntol (salix bebylonica) kabi turlarini ekib o'stirilishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Tol turlari amaliy ahamiyatiga ko'ra juda xilma-xil desak adashmagan bo'lamiz nazarimda. Bu o'simliklar qadimdan tog' daryo o'zanlari, to'qayzorlarda keng tarqalgan bo'lib, aholi tomonidan manzarali o'simlik sifatida ko'p ekilgan va suv havzalari atrofida ekilishi bilan meliorativ vazifalarni bajargan. Melioratsiya ya'ni tuproq unumdorligini oshirish maqsadlarida va dekorativ o'simlik sifatida o'stiriladi. Yog'ochidan mebel, taxta, gugurt ishlab chiqarish va uyjoy qurilishida keng foydalaniladi. Tol o'simligi ekologik jihatdan suv saqlash, daryo o'zanlari mustahkamligini saqlashda roli katta o'simlik hisoblanadi. Uning yosh novdalari chorva mollari va yovvoyi o'txo'r hayvonlar uchun to'yimli ozuqadir. Sanoatda tarmoqlarida esa tol po'stlog'idan terini oshlash uchun, novdalaridan



savat, mebellar tayyorlash uchun foydalaniladi. Mahalliy sharoitda hunarmandlar undan beshik tayyorlashda, ba'zi uy jihoz va anjomlari tayyorlashda foydalaniladi Tol tez o'sadi va yaxshi soya beradi, uning yig'loqi shakllari, masalan, majnuntollar dam olish maskanlarida, hovuz, ariq yoqalarida go'zal landshaftlar hosil qilib kishiga o'zgacha orom bag'shida etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'. Prator, L. Shamsuvaliyeva, E. Sulaymonov, X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov "BOTANIKA" Toshkent – 2010-yil.
2. "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
3. S. S. Sahobiddinov "O'simliklar sistematikasi", "O'qutuvchi nashiryoti" 1966-yil.
3. A. Sodiqov "O'simliklar biologiyasi" Toshkent 2009-yil.
4. David Attenborough – "The Private Life of Plants" (O'simliklarning shaxsiy hayoti).